

## MAHALLA — MILLIY BIRDAMLIK VA TOTUVLIK POYDEVORI

Anarqulov Jabarali

**Annotatsiya:** *Mahalla — bu jamiyatning asosiy poydevori bo’lib, u orqali ijtimoiy barqarorlik, milliy qadriyatlar, tarbiya va madaniyat saqlanadi. Mahalla mustahkam bo’lsa, jamiyat ham mustahkam va barqaror bo’ladi.*

**Kalit so`zlar:** *jamiyat, qadryat, madaniyat, tarbiya, ahamiyat, vakolat, oila, islohot, ta`minlash, himoya qilish.*

Mahalla — bu nafaqat yashash joyi, balki ijtimoiy hayotning eng kichik, ammo eng muhim bo‘lagi hisoblanadi. O‘zbek jamiyatida mahalla jamiyatning poydevori sifatida katta ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda o‘zini o‘zi boshqarishning noyob tizimini chinakam xalq vijdoniga aylantirish, huquq va vakolatlarini kengaytirish, moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash borasida tizimli ishlar qilinmoqda. Xususan, mahallalarda ma’naviy-ma’rifiy islohotlar bilan bir qatorda aholi bandligini ta’minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga manzilli yordam ko’rsatish, ishsizlarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlikka o’qitish, kambag’allikni qisqartirish bilan bog’liq keng qamrovli chora-tadbirlar ko’rilmoxda.

Bugungi kunda mahalla aholining ehtiyojmand qatlamini har tomonlama qo’llab-quvvatlash, ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirish, millatlararo totuvlik, hamjihatlikni ta’minlash, fuqarolarda Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini yuksaltirish kabi sifatlarni birlashtiradigan maskan sifatida shakllandi.

Jamiyatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida aholini g‘oyaviy tahdidlardan himoya qilish, turli oqimlarga mansub guruhlarga qarshi kurash borasida, mahallalarda ogohlilikni yo‘lga qo‘yish, bir so‘z bilan aytganda, tinchlik va barqarorlik uchun kurashmoq hayot taqozosidir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi, “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi, “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlarda mahalla institutiga keng vakolatlar berildi.

Mahalla aholisi o‘zaro yaqin munosabatda bo’ladi, bir-birining xursandchilik va qayg‘usida hamdardlik ko‘rsatadi.

- Mahallada do‘stlik, qo‘schnichilik an’analari kuchli, bu esa milliy birligimizni mustahkamlaydi.

- Turli millat va elatlar vakillari ham mahallada do‘stona yashaydi, bu esa xalqaro totuvlikka xizmat qiladi.

Mahalla turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida kelishmovchiliklarni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Mahalla raislari va faollari muammolarni hal qilishda vositachilik qiladi,

nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga yordam beradi. Bu yordam jamiyatda osoyishtalikni, tinchlik va barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Mahalla — bu nafaqat joy nomi, balki o‘zaro ishonch va hurmat asosida qurilgan ijtimoiy muhit. U milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analarni avloddan-avlodga yetkazishda asosiy rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham mahalla millatning birlik va totuvligining poydevori hisoblanadi.

Mahallaning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati

- Mahalla jamiyatning eng kichik, ammo eng mustahkam bo‘g‘inidir.
- U jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni ta’minlaydi.
- Mahalla orqali davlat siyosati aholiga yetkaziladi, aksincha, aholining muammolari davlat organlariga yetkaziladi.
- Shu sababli mahalla jamiyat va davlat o‘rtasida muhim ko‘prik vazifasini bajaradi.

### **XULOSA**

Mahalla — bu jamiyatimizdagi eng kichik, ammo eng muhim birlik bo‘lib, unda insonlar bir-biriga mehr-muhabbat va hurmat bilan munosabatda bo‘lishadi. Shu bois, mahallalarimiz mustahkam bo‘lsa, milliy birdamlik va totuvlik ham mustahkam bo‘ladi.